# Ko’hna Qal’ajiq qal’ada yangi topilmalar

Xorazm Ma’mun akademiyasi Arxeologik ekspeditsiyasi Qal’ajiq qal’a yodgorligida arxeologik tadqiqotlar davomida yodgorlikning mudofaa devorlarini ochib o’rgandi. Tadqiqotlar davomida mil. avv IV-III asrlarga oid eng qadimgi devor qismi o’rganildi. Ikki qator devor oralig’idagi yo’lak ochildi. Tashqi devorning himoya vositasi bo’lmish shinaklar ochib o’rganildi.







Ekspeditsiya yakunida ochilgan mudofaa devorlar somon suvoq bilan konservatsiya qilindi. Tadqiqotlar jarayonida bir qator antik davr sopol idishlar bo’laklari, temirdan ishlangan kamon o’q uchi hamda yog’och qoldiqlari topildi.